Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funktsional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlar.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilmjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	
Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	

Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monoglardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli	2064
<i>Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli	2080
<i>Odina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli	2102
<i>Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	
Talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
<i>Tashpulatov Farxad Alisherovich</i>	



“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xoimuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ibrohimova Nilufar Qobil qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada integrativ yondashuvning nazariy asoslari, uning zamonaviy pedagogik jarayondagi o'rni hamda, ayniqsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tarbiyachi kadrlarni tayyorlashdagi dolzarbligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda integrativ yondashuv asosida fanlararo bog'liqliklarni yo'lga qo'yish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish va kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada integratsiyaning talabalarda tizimli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qitish jarayonini kontekstual asosda tashkil etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda fanlararo integratsiyaga asoslangan darslar, mashg'ulotlar hamda amaliy topshiriqlar orqali ularning kasbiy ko'nikmalari, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarbiyachilar, kompetensiya, innovatsiya, modernizatsiya, texnologiya, shaxsiy fazilatlar, yondashuv, uzluksiz ta'lim, integrativ yondashuv, kasbiy kompetentlik, tarbiyachi, fanlararo bog'lanish, amaliy ko'nikmalar.

Abstract: This article is devoted to the theoretical and practical analysis of the integrative approach, its role in the modern pedagogical process, and its relevance in the training of future educators, particularly in the field of preschool education. The study examines the integrative approach as an effective means of establishing interdisciplinary connections, integrating theoretical knowledge with practical activities, and developing professional competence. The article highlights the role of integration in fostering students' systematic and critical thinking, as well as in increasing the effectiveness of education through a contextual organization of the learning process. In addition, scientifically grounded methods for developing professional skills, creative thinking, and problem-solving abilities of future preschool educators through interdisciplinary integration are presented.

Key words: future educators, competence, innovation, modernization, technology, personal qualities, approach, lifelong education, integrative approach, professional competence, preschool teacher, interdisciplinary integration, practical skills.

Аннотация: Данная статья посвящена теоретико-практическому анализу теоретических основ интегративного подхода, его роли в современном педагогическом процессе и, в особенности, актуальности подготовки педагогических кадров в сфере дошкольного образования. В исследовании интегративный подход рассматривается как важный инструмент установления междисциплинарных связей, интеграции теоретических знаний с практической деятельностью и формирования профессиональной компетентности будущих педагогов. В статье раскрывается роль интеграции в развитии системного и критического мышления у студентов, повышении эффективности обучения за счёт организации образовательного процесса на контекстной основе. Также научно обоснованы методы развития профессиональных навыков, творческого подхода и способности к решению проблемных ситуаций посредством междисциплинарной интеграции в процессе подготовки будущих воспитателей.

Ключевые слова: будущие педагоги, компетентность, инновации, модернизация, технологии, личностные качества, подход, непрерывное образование, интегративный подход, профессиональная компетентность, воспитатель ДОО, междисциплинарные связи, практические навыки.

KIRISH

Mamlakatimizda bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tarbiyachilarni tayyorlash, professor-o'qituvchilar va bo'lajak tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligi bevosita tarbiyachi kadrlarning bilim, malaka va mahoratiga bog'liq. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar va berilayotgan e'tiborni quyidagi jihatlarda ko'rish mumkin: maktabgacha ta'lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, mazkur sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda.



2017-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligining (hozirda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi) tashkil etilishi, sohani rivojlantirish bo'yicha ko'plab farmon va qarorlarning qabul qilinishi ushbu yo'nalishga berilayotgan yuksak e'tibordan dalolat beradi. Davlatimiz taraqqiyotining asosi bo'lgan "inson kapitali"ni shakllantirish aynan bolalik davridan, ya'ni maktabgacha yoshdan boshlanadi. Sifatli maktabgacha ta'lim bolaning aqliy, jismoniy, ijtimoiy va emosional rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu jarayonda tarbiyachining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, mamlakatimiz pedagogika universitetlari va institutlarida "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalari sezilarli darajada oshirildi. Bo'lajak tarbiyachilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga alohida urg'u berilmoqda. Talabalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amaliyot o'tashlari uchun qulay sharoitlar yaratilib, o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilgan holda amaliyot soatlari ko'paytirildi hamda ularni real ish muhitiga moslashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarni raqamli va zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion pedagogik metodlarni qo'llashga alohida ahamiyat berilmoqda.

Yuqorida muhokama qilinganidek, mamlakatda ta'limning raqamlashtirilishi ustuvor vazifalardan biridir. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari (interaktiv doskalar, smart-qurilmalar, ta'limga oid ilovalar) bilan ishlashga o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyachilarga sifatli raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmalar berilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'limning samarali amalga oshirilishi tizimning barcha bo'g'in subyektlarida raqobatbardoshlik va ko'p qirralilikni ta'minlashga bog'liq bo'lib, eng avvalo, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar, innovatsion yutuqlarning almashinish tezligi, ayniqsa, kadrlar tayyorlash tizimi mazmuni va sifatini uzluksiz takomillashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Shu sababli Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri – oliy ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, mamlakatimiz va xorijdagi ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish hamda zamonaviy innovatsion o'quv muhitini yaratishdan iboratdir. Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va aniq maqsadga yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Jamiyatni isloh qilish, uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyat rivojlanishining istiqbolini belgilaydi. Bugungi kunda mehnat bozorida kuchli raqobat sharoitida ustuvor o'rinni egallash uchun har bir mutaxassisdan zamon talablariga mos kasbiy kompetentlikka ega bo'lish hamda uni izchil ravishda rivojlantirib borish talab etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Integrativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tadqiq etish yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, J. Dewey, H. Gardner, R. Fogarty kabi xorijiy pedagoglarning ilmiy izlanishlari integratsiyalashgan o'quv tizimlarining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. J. Deweyning "Experience and Education" ("Tajriba va ta'lim") asarida integratsiya orqali o'rganish jarayonining mazmunan boyitilishi haqidagi ilmiy qarashlar ilgari surilgan. R. Fogarty esa o'zining "Ten Ways to Integrate Curriculum" nomli tadqiqotida fanlararo integratsiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish usullarini tizimli tarzda bayon qilgan.

O'zbek olimlaridan H. T. To'xtasinov, S. Turg'unboeva, D. Jo'raeva, G'. Q. Qodirova kabi tadqiqotchilar integrativ yondashuv, kasbiy kompetentlik hamda maktabgacha ta'lim metodikasi yo'nalishida muhim ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida integratsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning amaliyotda qo'llanilishi hamda o'quv jarayonidagi o'rni haqida qimmatli fikrlar mavjud bo'lsa-da, aynan tarbiyachilar kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirishga bag'ishlangan tizimli tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Shu sababli mazkur maqola integrativ yondashuvning maktabgacha ta'lim yo'nalishida tarbiyachilar kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi rolini aniqlashtirish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, muallifning ilmiy izlanishlari yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlari asosida olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotchi olimlardan E. F. Zeer fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish jarayonida kasbiy kamolotga erishish davomida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishi hamda ularning kasbiy muhim shaxsiy sifatlar bilan aloqasi kuchayib borishi kuzatiladi. Kompetentlikning rivojlanish bosqichlariga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, rivojlanish bosqichlarining inson ongiga bog'liq shakllarining davrlari alohida-alohida tadqiqot obyekti hisoblanib, integratsion asosda o'rganishni talab etadi.

Xususan, integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan bildirilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish hamda kasbiy kamolotni belgilab beruvchi boshqa pedagogik xususiyatlar kiritiladi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- har qanday muayyan vaziyatda uning turli jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;
- qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;
- ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun mavjud barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;
- faoliyat doirasida boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnatishga imkon beruvchi kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish;
- muayyan ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarash, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik hamda faoliyatga intilish hissining mavjudligi;
- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

Mazkur sifatlar kasbiy kompetentlik negizida aks etadi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta'lim oluvchining o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish hamda ularni ta'lim muassasalarida faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat bo'lsa-da, shu bilan birga, ularning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o'zlashtirishga doir vazifalar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- pedagogning kasbiy faoliyatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;
- pedagogik va ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo'lgan muammoli vaziyatlarda masalalarni ajratib olish hamda ularni hal etish vositasi sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish;
- pedagogning kasbiy faoliyatida individual ta'lim metodlarini qo'llay olish, o'quv-pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv hamda ijodiy usullarini shakllantirish;
- kasbiy faoliyatida muhim bo'lgan kasbiy-pedagogik sifatlarni, jumladan, bolalarni sevish, boshqalarni rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantirish.

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda shaxsning o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mehnat bozori nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bog'liq bo'lgan yuqori talablarni qo'yimoqda, balki tez va samarali o'rganish, qayta tayyorgarlikdan o'tish, jamoa bo'lib ishlash, yuqori moslashuvchanlik va stressga chidamlilik, ijodiy salohiyat va mustaqil fikrlash kabi shaxsiy fazilatlarining rivojlangan bo'lishini ham taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida ta'limni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida ta'lim islohotlari izchil amalga oshirilmoqda.

Bizning fikrimizga ko'ra, kompetentlikning namoyon bo'lishi muayyan sohada aniq harakatlarni amalga oshirish, jumladan, yuqori ixtisoslashgan bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash usullari hamda o'z faoliyatini to'g'ri yo'naltirish kabi xususiyatlarning mavjudligini talab etadi:

- shaxs kompetentligi kasbiy motivatsiya va kognitiv sohaga oid bilimlarning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi;
- samarali faoliyat bir nechta omillarning o'zaro bog'liqligiga asoslanib, muayyan vaziyatda namoyon bo'ladigan alohida qobiliyat darajasiga emas, balki maqsad sari intilish jarayonida turli vaziyatlarni qamrab oluvchi mustaqil va qo'shimcha kompetentliklarning majmuasiga ham bog'liq bo'ladi.



Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy mahoratining zaruriy tarkibiy qismi kasbiy kompetensiya hisoblanadi. Agar kompetensiya kelajakdagi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lsa, u bo'lajak tarbiyachilarning salohiyatli fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda mutaxassisning tegishli kompetensiyalarni egallash darajasini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, shaxsning professionalligi muayyan kompetensiyalarni quyidagi guruhlariga ajratish orqali tavsiflanadi:

- shaxs va hayot faoliyati subyekti sifatida o'zi bilan bog'liq kompetentliklar;
- boshqa odamlar bilan muloqot va hamkorlik qilish bilan bog'liq kompetentliklar.

Kompetensiyalarni dastlab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Standart kompetensiya – doimiy va odatiy vaziyatlarni bajarish qobiliyati (internet va ommaviy axborot vositalari orqali dunyoda bo'layotgan yangiliklar, kasbiga oid yangiliklar bilan muntazam tanishib borish, g'oyaviy-siyosiy jihatdan qurollanganlik).
2. Asosiy kompetensiya – egallab turgan lavozimiga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati (muayyan lavozim doirasida muammolarni individual yondashuv asosida hal qila olish).
3. Yetakchi kompetensiya – kasbiy faoliyatning yangi turlarini yarata olish qobiliyati (kasb nuqtayi nazaridan yetuk bilimga ega bo'lish, muammolarni ilg'ay olish, yangi faoliyat turlarini yaratishga faollik ko'rsatish hamda yetakchilik qobiliyatiga egalik).

Demak, dastlabki kompetensiyalarni egallash uchun quyidagi kompetensiyalarni bilish zarur:

1. Lingvistik kompetensiya (kommunikativ muloqot layoqatiga ega bo'lish);
2. Sotsial kompetensiya (muayyan sotsial qatlamlar va madaniyatlarni tushunish layoqati);
3. Pragmatik kompetensiya (muayyan vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'lish).

Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar va kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tanlashi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga boy ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik qilishi"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularning amalda yuqori darajada qo'llay olinishi bilan tavsiflanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim va malakalarning o'zlashtirilishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning egallanishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z kasbiy faoliyatida samarali qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlar va noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'lishda namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar o'z bilimlarini izchil ravishda boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi hamda amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ularning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko'ra, integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning oliy ta'lim muassasasidagi faoliyatini faollashtirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali bugungi kunda talab etilayotgan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. Ushbu tushuncha mehnat subyekti faoliyatiga qo'yiladigan aniq talablar yoki subyektning muayyan faoliyatning o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshiradi. Shu bilan birga, fanlararo bog'liqlikni ta'minlagan holda ta'lim berish bo'lajak tarbiyachilarning mantiqiy fikrlashini va kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirish esa ularning bilimlarining mustahkam va mazmunli bo'lishiga olib keladi. Tarbiyachilarni kasbiy rivojlantirish jarayonida integrativ metodik yondashuvlar asosida trening va seminarlar tashkil etish zarurati mavjud.

Maqolada olingan xulosalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Integrativ yondashuv asosida ta'limni tashkil etish" bo'yicha alohida modullar va amaliy kurslarni joriy etish lozim.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida fanlararo bog'liqlik asosida ishlab chiqilgan namunaviy dars ishlanmalari hamda metodik qo'llanmalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.
3. Har bir tarbiyachi uchun integrativ yondashuv bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi.
4. Kelgusida mazkur mavzu doirasida keng qamrovli eksperimental tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalari asosida ta'lim siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish taklif etiladi.

Shunday qilib, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish ilmiy asoslangan, tizimli va uzluksiz pedagogik faoliyat sifatida qaralishi zarur. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, kelgusida pedagogika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning umumiy ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, mazkur jarayonda integrativ yondashuvlarga asoslangan holda kasbiy va shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olish muhim hisoblanadi. Shu o'rinda ta'lim muassasalarida tarbiyaviy munosabatlarni inobatga olgan holda faoliyat olib borish, turli masalalar va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bu holat bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik. – T.: 2016. – 84 b.
2. Bayani M. N. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti budushchego uchitelya-bakalavra: diss. kand. ped. nauk. – Al'met'evsk, 2006. – 38 s.
3. Kamalova G. (2023). Talabalarni kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mohiyati. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 497–503.
4. Xalilova Dilnoza Furqatovna. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish. Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. Qo'qon, 21-iyun 2023-yil, 677–679.
5. Abdusamadova S. (2022). Integrativ yondashuvning pedagogik asoslari. – T.: Fan, 168 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.